



ILK SHAHARLARNING SHAKILLANISH OMILLARI VA ULARNING TADQIQOTI MASALALARI

Rayimova Sevinch Ihtiyor qizi

Toshkent Amaliy Fanlar universiteti

Tarix va Filologiya fakulteti

T -24-01 guruh talabasi.

Annotatsiya: Maqolada O'rta Osiyo ilk shaharlarning paydo bo'lish omillari, nazaryasi va shart-sharoitlari tahlil qilingan. O'zbekiston hududidagi eng qadimgi shahar Jarqo'tonning o'rganilishi yoritilgan. Jarqo'tonda olib borilgan tadqiqot ishlari bayon qilinib, unda shahar belgilari mavjud ekanligi asoslangan. Jarqo'tonda topilgan moddiy buyumlar o'sha davr ijtimoiy turmush tarzini yoritgan. Aholisining zardushtiylik diniga etiqod qilishi, ularda dehqonchilik va hunarmandchilik yuksak darajada rivojlanganligi asoslangan.

Kalit so'zlar: Jarqo'ton, Surxandaryo, Sherobod, Bo'stonsoy, Ark, shahriston, rabot, ko'zali, mo'lali.

Аннотация: В статье рассматриваются теории и условия возникновения первых городов в Средней Азии. Анализируется формирование одного из древнейших городов на территории Узбекистана - Джаркутан. В исследовании описываются археологические работы, проведённые в Джаркутане, и доказываются наличие признаков городской жизни в этом поселении. Также отмечается, что найденные материальные предметы отражают социально-бытовой уклад того времени. Обосновано, что население исповедовало зороастрийскую религию, а земледелие и ремесленничество находились на высоком уровне развития.

Ключевые слова. Джаркутан, Сурхандарья, Шерабад, Бустансай, Арк, шахристан, рабат, кузали, мулали.

Annotatsion: The article analyzes the theories and conditions for the emergence of the first cities in Central Asia. It examines the development of one of



the most ancient cities on the territory of Uzbekistan – Jarqo‘ton. The research describes the archaeological investigations carried out in Jarqo‘ton, proving the existence of signs of urban life in this area. The article also highlights that the material artifacts found in Jarqo‘ton reflect the social lifestyle of that period. It is substantiated that the population followed the Zoroastrian religion, and agriculture and craftsmanship had reached a high level of development.

Keywords: Jarkotan, Surkhandarya, Sherobod, Bustonsay, Ark, shahrstan, rabot, kozali, molali.

Jamiyatda ilk shaharlarning paydo bo‘lishi butun jamiyat hayotidagi chuqur sifatiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Insoniyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish natijasida shaharlar qishloqlardan ajralib chiqqan. Shaharlarning shakllanishidagi muhim omillardan biri jamiyatdagi mehnat taqsimoti hisoblanadi. Shu bilan birga, geografik omillar ham bunda muhim ahamiyat kasb etgan.

O‘rta Osiyoda shakllangan ilk shaharlar tarixi bo‘yicha B.M.Masson, B.A.Litviniskiy, A.A.Asqarov, V.I.Sarianidi, E.V.Sayko, I.V.Diyakonov, G.E.Areshyana, T.Sh.Shirinov, E.V.Rtveladze, A.S.Sagdullaev, B.Eshov, N.A.Egamberdiyevlar tadqiqot ishlarini olib borganlar¹.

Shaharlarning tashkil topishida aholining o‘troq xo‘jalik hayoti va u bilan bog‘liq yana 3 omil mavjudligi tarixan zarurligi asoslangan. Jahon fanida qabul qilingan ilmiy nazariyaga ko‘ra, bir aholining yashash joyini shahar deb atashi uchun qator omillar talab etiladi: hududi 5-6 gektar va undan kam bolmaga maydonda aholining zich joylashgan bo‘lishi;

maydonning chor atrofi qalin mudofaa devor bilan o‘ralgan bo‘lishi;

shahar yuqori tabaqa va hokimlarning turar joylari oddiy fuqarolar turar-joy massivlaridan ajralib turishi;

shahar hokimining baland poydevor ustiga qurilgan monumental qasri, ya’ni shahar o‘rdasi bo‘lishi;

shahar maydonida diniy markaz – mahobatli ibodatxona majmui tashkil topgan bo‘lishi;

¹ Эшов Б. Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи. – Тошкент: Фан ва технология, 2006. -Б 32-33.



shahar iqtisodiy asosini ko'p tarmoqli hunarmandchilik va savdo-sotiq tashkil etgan bo'lishi;

shahar ramzi, belgisi, shahar muxri va boshqa moddiy isbotlovchi dalillar mavjud bo'lishi kerak².

Tadqiqotlar natijalarini ilmiy-qiyosiy taxlil qilish natijasida O'rta Osiyodagi dastlabki shahar markazlari va o'choqlari rayonlashuvini quyidagi davrlarga ajratish mumkin.

I davr – mil.avv. III-II ming yillik birinchi yarmi – Janubiy Turkmaniston (Oltintepa, Namozgoh), Yuqori Zarafshon (Sarazm), Janubiy O'zbekiston (Sopollitepa);

II davr – mil.avv. II ming yillikning o'rtalari – Janubiy Turkmaniston (Gonur), Janubiy O'zbekiston (Jarqo'ton);

III davr – mil.avv. II ming yillik oxiri – I ming yillikni o'rtalari – Surxandaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Xorazm, Farg'ona va Toshkent vohasi³.

Ilk shaharlarning paydo bo'lishi uchun quyidagi shart-sharoitlar mavjud bo'lishi lozim:

1. Qishloq(manzilgoh)larning aholi soniga qarab kengayib borishi;
2. Qishloq(manzilgoh)larida aholi tabaqalanishining boshlanishi;
3. Mehnatning markazlashuvi va mehnat faoliyatining chuqurlashib borishi;
4. Mehnatning yangi ehtiyojlarini qondirishdagi zaruriy shart sifatida ixtisoslashuvi;

Mil.avv.III ming yillikning oxiri - II ming yillikning boshlarida O'rta Osiyo hududida shahar shakllanishi uchun zarur sharoitlar vujudga kelgan.

Davlatchilikning tashkil topishi asosida ham shaharsozlik madaniyatining shakllanishi yotadi. Dastlabki shaharlarning tashkil topishi va rivojlanishida o'troq aholining dehqonchilik va hunarmandchilik xo'jaligi asosiy iqtisodiy omil hisoblanadi.

² Аскарлов А.А. Энг кадимий шахар. – Тошкент:” Маънавият”, 2001. -Б6.

³ Эшов Б. Қадимги Ўрта Осиё шахарлари тарихи.- Тошкент: Фан ва технология, 2006. -Б62.



Surxandaryo voxasidan topilgan Jarqo‘ton yodgorligida A.Asqarov tomonidan keng tadqiqot ishlari olib borilib, u O‘zbekiston hududidagi ilk Shahar ekanligi isbotlangan. Jaraqo‘ton bronza davrida bunyod etilgan bo‘lib, arxeologik tadqiqotlar natijasida u yerdan olov ibodatxonasi, arki, shahristoni aniqlangan. Uning quydagi rivojlanish bosqichlari aniqlangan:

1. Jarqo‘ton bosqichi – miloddan avvalgi 1900-1600 yillar;
2. Ko‘zali bosqichi – miloddan avvalgi 1600-1450 yillar;
3. Mo‘lali bosqichi – miloddan avvalgi 1450-1250 yillar;
4. Bo‘ston bosqichi – miloddan avvalgi 1250-1000 yillar⁴;

Jarqo‘ton - Surxandaryo viloyati Sherobod tumanida joylashgan bo‘lib, 1950-yillarda bu joylarda Bo‘stonsoy jarliklari ustiga aholi xo‘jaligining yirik shoxli hayvonlari uchun chorva qo‘tonlar barpo etishgan. Shu sababdan bu joyni aholi jarliklardagi qo‘ton, ya‘ni Jarqo‘ton deb atagan⁵. Jarqo‘tonda arxeologik tadqiqot ishlari 1973-yildan boshlangan va o‘rganilish ishlari bugungi kungacha davom etmoqda.

Jarqo‘tonning umumiy maydoni 100 gektardan iborat, bu qadimgi shahar ikki qismdan ark va shahristondan iborat. Shimoliy qismida umumiy maydoni 3 gektarni tashkil qilgan ark joylashgan. Arkning atrofi qalin mudoofa devori bilan o‘ralgan. U somon qo‘shilgan xom g‘ishtdan qurilgan. Devorning qalinligi 3 metr, balandligi 5-6 metrni tashkil qiladi. Hozirda saqlangan qismi 1 metrni tashkil qiladi. Arkda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida do‘ngliklar turar-joy massivlari ekanligi va pastliklar esa ko‘cha yoki o‘zlashtirilmagan maydonlar ekanligi aniqlangan. Arkka kirish darvozasi uning janubiy qismida joylashgan. Sharqqa tomondagi do‘ngliklarni qazish jarayonida u yerdan jez(bronza) ishlab chiqarish bilan bog‘liq hunarmandlar massivi ochilgan⁶. Bronza davriga oid mehnat va harbiy qurollar, zeb-ziynat buyumlari, muxrlar, metall eritish, metallardan mehnat qurollari ishlab chiqarish ustaxonalari ham topilgan. Shahar ibodatxonasini qazish chog‘ida

⁴ Egamberdiyev N.A. Arxeologiya. – Toshkent: “Lesson-Press”, 2023. -B71.

⁵ Асқаров А. Энг қадимий шаҳар. -Б4.

⁶ Асқаров А. Энг қадимий шаҳар. -Б9.



maxsus chilangarlik ustaxonasi ham topilgan. Ushbu topilmalar bronza davrining noyob topilmalari hisoblanadi.

Jarqo‘tonning arkdan janubga tomonda shahriston joylashgan. Shahriston qismida 15 ga yaqin tepalik bo‘lgan. Hozircha shulardan 6 tasida katta va kichik hajmdagi qazishmalar olib borilgan. 10 dan ortiq joylarga shurflar tashlangan. Aynan shu joylardagi tepaliklardan ikkitasida, ya’ni 5-6 tepalikda, olib borilgan keng ko‘lamli arxeologik qazishmalar ajoyib natijalar bilan yakunlangan. Beshinchi tepalikda aholining uylari aniqlangan⁷. Bu yerning 3000 kv metr maydoni to‘liq ochilgan. Natijada 50 ga yaqin uylar topilgan va uylar ostida qabrlar joylashganligi ham aniqlangan. Uylar 1,5 metr qalinlikdagi supa ustiga qurilgan. Uylarni qazish jarayonida xonalarning birida qabila oqsoqolining qabri topilgan. Qabila sardori o‘ziga tegishli bo‘lgan buyumlar bilan dafn etilgan. Bu o‘sha davr jamiyatining turmush tarzini aniqlashda muhim manbalar hisoblanadi.

Shahriston hududida o‘rganilgan 6- tepada otashparastlarning ibodatxonasi topilgan. Ushbu ibodatxona A.Asqarov va T.Sh.Shirinov tomonidan ochilib o‘rganilgan⁸. Otashparastlar ibodatxonasi arkdan 350 metrlar chamasi janubi-sharqda, Jarqo‘tonning eng baland qismida qurilgan. Ibodatxona to‘g‘ri to‘rtburchak shakilda (44,4 x 60 m), tomonlari yorug‘likka moslashtirilib bunyod etilgan. Atroflari xom g‘ishtli qalin (4,5 m) mudofaa devorlari bilan o‘ralgan. U ikki qismdan muqaddas sajdagoh va xo‘jalik qismlaridan iborat. Kompleksning muqaddas sajdagoh qismi uning katta sharqiy tomonini (35 x 35m) egallagan. Qazishmalar natijasida bronza davriga oid ustaxonalar topilgan. Ustaxona ichini qazish jarayonida bronzadan yasalgan qozon, mitti pichoqlar, bolta, tesha, uy-ro‘zg‘or asboblari topilgan. Jarqo‘ton aholisi dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug‘illanishgan.

Shaharlar insoniyat taraqqiyotidagi muhim yutuqlardan biridir. Shaharlar jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tarqqiyoti zaminida vujudga keladi. Ilk shaharlarning vujudga kelishida tabiiy-geografik sharoit, unumdor yerlar

⁷ Аскарлов А. Энг кадимий шахар. -Б11.

⁸ Аскарлов А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Монография. – Самарканд: 1993.-С187.



mavjudligi, mudofaa himoyasi, xo‘jalik taraqqiyoti, aholi soning ko‘pligi va savdo yo‘llarining qulayligi muhim omillar sanaladi. Bronza davrida dehqonchilikdan hunarmandchilikning ajralib chiqishi natijasida, mehnat qurollarining takomillashuvi va mehnat taqsimotining rivojlanuvi ilk shaharlar paydo bo‘lishi uchun iqtisodiy asos yaratgan. Mehnat qurollari takomillashuvi, sug‘orish tarmoqlarining ixtiro qilinishi o‘z navbati aholi vakillari uchun hosildorlikni ortishiga va oziq-ovqat zaxiralarini ko‘payishiga zamin yaratdi. O‘zbekiston hududida Jarqo‘ton yodgorligi shu sharoitlar zaminida vujudga kelgan ilk shaharlardan biri hisoblanadi. Arxeologik tadqiqotlar Jarqo‘tonda qadimiy ishlab chiqaruvchi xo‘jalik tarmoqlari – dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik markazlari rivojlanganini ko‘rsatadi. Yodgorlik Surxandaryo vohasida qadimiy sivilizatsiya shakillanganligini, bu hududda shaharsozlik bundan to‘rt ming yil oldin paydo bo‘lganini isbotlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

- 1.Эшов Б. Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи. -Тошкент: Фан ва технология., 2006.
2. Асқаров А.А. Энг қадимий шаҳар. – Тошкент.: “Маънавият”, 2001.
3. Асқаров А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Узбекистана. Монография. – Самарканд: 1993.
- 4.Шайдуллаев Ш.Б. Ўзбекистон худудида давлатчиликнинг пайдо бўлиши ва ривожланиши. – Самарқанд: 2009.
- 5.Egamberdiyeva N.A. Arxeologiya. -Toshkent.: “Lesson Press”, 2023.
6. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: O‘zbekiston, 2015.
- 7.Ширинов Т., Шайдуллаев Ш. Бактрия минг шаҳарли мамлакат. – Б.//”Термиз: тарихий тадқиқотлар, илмий хулосалар”. –Ташкент: 2001.
8. Собиров Қ. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарларининг мудофаа иншоотлари. – Ташкент: Фан, 2009.
9. Egamberdiyeva N.A. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati (mil.avv. VIII-mil. IV asrlar). –Т.: “Innovatsiya-ziyo”, 2020.
- 10.Боқиев А., Шайдуллаев А., Йўлдошева З. Окс цивилизацияси. –Ташкент: Yangi nashr, 2015.